

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI



“MAXSUS FANLARNI O'QITISH METODIKASI”

FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	500 000 — Tabiiy fanlar, matematika va statistika 600 000 — Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari
Ta'lim sohasi:	540 000 — Matematika va statistika 610 000 — Axborot-kommunikatsiya texnologiyalar
Ta'lim yo'nalishlari:	70540201 - Amaliy matematika 70610103 - Axborot tizimlari 70610101 - Kompyuter tizimlari va ularning dasturiy ta'minoti

Toshkent-2024

Fan/modul kodi MFOM1106	O'quv yili 2024-2025	Semestr 1	ECTS - Kreditlar 6	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi	54	126	180
2.	<p style="text-align: center;">I. Fanning mazmuni.</p> <p>O'zbekistonda kadrlar tayyorash milliy modeli mujassamlashgan ta'lim va uning talablari asosida zamonaviy mutaxassis tayyorlashning huquqiy asoslari, o'quv-me'yoriy hujjatlar, maxsus fanlarning o'quv-uslubiy ta'minoti, ilmiy-tadqiqot metodlarini qo'llash va o'qitish, o'quv maqsadlari va mazmunini belgilash, o'qitish vositalari va didaktik materiallar tayyorlash, nazariy va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish metodikasi, maxsus fanlarni o'qitishda pedagogik texnologiyalar, faol metodlarni qo'llash, maxsus fanlardan ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash muhim hisoblanadi.</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad - Maxsus fanlarni o'qitish bo'yicha magistrantlarning pedagogik mahoratini oshirish, amaliy va nazariy mashg'ulotlarni tashkil etishning zamonaviy metodlari bilan tanishtirish, maxsus fanlarga doir o'quv-uslubiy materiallarni tahlil qilish, mashg'ulotlarning turli usullarini ishlab chiqish va o'tkazish, shuningdek, talabalar bilim darajasini nazorat qilish va baholashning zamonaviy yo'llarini o'rgatish.</p> <p>Fanning vazifasi - magistrantlarni oliy ta'lim tizimida maxsus fanlarni o'qitish metodikasi, metodologiyasi, nazariy va amaliy asoslari, ularning kelgusidagi pedagogik va ilmiy-tadqiqot faoliyati uchun zarur bo'ladigan zamonaviy pedagogik va psixologik bilimlar bilan tanishtirish, jumladan:</p> <ul style="list-style-type: none"> davlat ta'lim standartlari va ular asosida ishlab chiqiladigan namunaviy fan dasturlari, o'quv rejalarni ishlab chiqish tartibini o'rgatish; maxsus fanlarni o'qitishda optimal strategiyani tanlay olish, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish va amalga tatbiq etish; maxsus fanlarni o'qitish metodikasini takomillashtirishda ilmiy-tadqiqot va ta'lim sohasidagi innovatsiyalardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat. <p style="text-align: center;">II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasiga kirish. Zamonaviy ta'lim tushunchasi. Ta'lim tizimi taraqqiyotining jahon tendentsiyalari. Ta'lim sifatini ta'minlash maqsadida tizimni boshqarish</p>			

tamoyillari. O'zbekistonda ta'lim tizimi. "Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi"ning boshqa fanlar bilan aloqasi.

2-mavzu. Qiyosiy metodika.

"Qiyosiy metodika" tushunchasi. Qiyosiy metodikaning maqsadi, vazifalari va o'rganish ob'ekti. Turli ta'lim muassasalarida o'qitish metodikasi (maktab, akademik litsey, kollej, OTM).

3-mavzu. O'qitishning turli bosqichlarida ta'limni individuallashtirish va tabaqalashtirish muammolari.

Intellectual salohiyat nazariyasi. Nazoratga qo'yiladigan zamonaviy talablar. Turli ta'lim muassasalarida o'quvchi va talabalar egallagan bilimlarni baholashning o'ziga xos xususiyatlari.

4-mavzu. Pedagogning umumkasbiy kompetentsiyasi.

Kompetentli yondashuv texnologiyasining umumiy tavsifi. Pedagogning kasbiy faoliyati. Zamonaviy pedagog va unga qo'yiladigan talablar. Zamonaviy ta'lim tizimida shaxsning o'z-o'zini tarbiyalashi.

5-mavzu. Zamonaviy pedagogning kasbiy mahorati.

Kasbiy-pedagogik o'z-o'zini boshqarish pedagog kompetentligining asosi sifatida. Kompetentsiya va kompetentlik tushunchalari o'rtasidagi o'zaro munosabat. Muammoli vaziyatlarga yechim topishda kasbiy kompetentlik.

6-mavzu. Kasbiy-pedagogik madaniyat.

Kasbiy-pedagogik madaniyat – mohir pedagogning asosiy xususiyati sifatida. Pedagogik faoliyat sub'ektlari. Kasbiy-pedagogik madaniyatning psixologik komponentlari (tahliliy-refleksiv, tashkiliy, baholovchi-informatsion, tuzatuvchi, o'z-o'zini boshqaruvchi aspektlar). Pedagogik muloqot madaniyati kasbiy-pedagogik madaniyatning yetakchi komponenti sifatida.

7-mavzu. Oliy ta'lim tizimida o'qitish metodikasi.

Oliy ta'limda pedagogik faoliyatning asosiy turlari: ma'ruza - ta'lim tizimining yetakchi komponenti sifatida, ma'ruzaning asosiy vazifalari, ma'ruzani tayyorlashning asosiy metodik aspektlari va uni o'tkazish. Ma'ruza turlari va ularning tavsifi.

8-mavzu. Oliy ta'limda mashg'ulotlarni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari.

Seminar va uning o'ziga xos xususiyatlari. Amaliy mashg'ulot va amaliyot to'g'risida tushuncha, ularning o'ziga xos xususiyatlari. Amaliy darslarning turlari. Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish. Laboratoriya mashg'ulotlarini loyihalashtirish va o'tkazish.

9-mavzu. O'qitishning ta'lim-tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalari. O'qitish jarayonida bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish. O'qitish natijalarini nazorat qilish sifati. Talaba ilmiy ishlarining turlari (kurs ishi, bitiruv malakaviy ish, magistrlik dissertatsiyasi, tezis, doklad, maqola). Pedagogik eksperiment, uning metodlari, bosqichlari va tashkil etish shartlari.

10-mavzu. Pedagogik faoliyatda innovatsiyalar.

Innovatsiya tushunchasi, pedagogik innovatsiyalarni qo'llash. Pedagogik innovatsiyalarning turlari: yangi g'oyalar, texnologiyalar, pedagogik faoliyatda yangi vositalar, metod va shakllarni qo'llash. O'quv jarayoniga yangi tizimni joriy etish. Innovatsion texnologiyalarni o'rganish va pedagogik faoliyatda qo'llash. Kasbiy mahoratini oshirib borish - pedagog innovatsion faolligining omili sifatida.

11-mavzu. O'rgatuvchi dasturlarni loyihalash metodikasi.

O'rgatuvchi dasturlarni loyihalashga qo'yiladigan zamonaviy talablar. O'rgatuvchi mualliflik dasturlarini ishlab chiqish va o'quv adabiyotlarini yaratish masalalari.

12-mavzu. Modullarning tuzilishi va mazmuni.

Modulga asoslangan dastur, uning mazmuni, tuzilishi va tarkibi. Modul texnologiyasi asosida o'qitishning afzalliklari. Modul asosida o'qitishni tashkil etish shartlari. HEMIS OTM axborot tizimi.

13-mavzu. Innovatsion texnologiyalarini qo'llash va keyslarni ishlab chiqish metodikasi.

Innovatsion texnologiyalarini qo'llash nuqtai nazaridan o'quv vositalarini tahlil qilish va baholash. Keyslarni ishlab chiqish metodikasi.

III.Seminarmashg'ulotlari buyicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Oliy ta'lim tizimida pedagogik faoliyat turlari va ularning tahlili
2. Mutaxassislik fanlari o'quv dasturlarini tahlil qilish
3. Mutaxassislik fanlari bo'yicha davlat ta'lim standartlariga kiritilgan kompetentsiyalarni tahlil qilish.
4. Pedagogning umumkasbiy kompetentsiyasi
5. Muayyan mutaxassislik fani bo'yicha terminologik lug'at tuzish
6. Muammoli o'qilish texnologiyasini qo'llagan holda maxsus fan bo'yicha ma'ruza reja-konspektini ishlab chiqish
7. Qiyosiy metodikaning xususiyatlari va turli ta'lim muassasalarida darsni tashkil etish va o'tkazish.
8. Masofaviy ta'limda qo'llash imkonini beruvchi videomaruza fragmentini ishlab chiqish
9. Zamonaviy pedagogning kasbiy mahorati yuzasidan tavsiya va ko'rsatmalar ishlab chiqish
10. O'rgatuvchi dasturlarni ishlab chiqish, topshiriqlar mazmunini ishlab chiqish
11. HEMIS OTM axborot tizimi bilan ishlash
12. Nazorat turlari va nazorat topshiriqlarini ishlab chiqish
13. Fanning ayrim mavzulari bo'yicha test tuzish
14. Mutaxassislik fanlaridan keys ishlab chiqish

Izoh: Amaliy mashg'ulotlarda talabalar ko'rsatilgan mavzular bo'yicha kompyuterda amaliy topshiriqlarni bajaradilar. Amaliy mashg'ulotlardan maqsad ma'ruza mashg'ulotlarida olingan nazariy bilimlarni amaliy masalalarni yechishda qo'llash orqali bilim va ko'nikmalarini chuqurlashtirish va kengaytirishdan iborat.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'limning asosiy maqsadi – magistr o'qituvchining rahbarligi va nazoratida muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun bilim va ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

“Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi” fanini o'rganuvchi magistrantlar auditoriyada olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash va amaliy masalalarni yechishda ko'nikma hosil qilish uchun mustaqil ta'lim tizimiga asoslanib, kafedra o'qituvchilari rahbarligida mustaqil ish bajaradilar. Bunda ular qo'shimcha adabiyotlardan o'rganib, hamda internet saytlaridan foydalanib ilmiy ma'ruzalar tayyorlaydilar, amaliy mashg'ulot mavzusiga doir uy vazifalarini bajaradilar, ko'rgazmali qurollar va slaydlar tayyorlaydilar. Mustaqil ishning maqsadi olingan nazariy bilimlarni mustahkamlash, belgilangan mavzular asosida qo'shimcha bilim olishdan iborat.

Magistrant mustaqil ishini tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalanadi:

- ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash;
- pedagogik texnologiyalarni tasniflash va tahlil qilish;
- mutaxassislik fanlarini modul asosida o'qitish bo'yicha ishlanma loyihasini yaratish.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari

1. Pedagogik texnologiyalar tasnifi
2. Pedagogik texnologiyalarni tadqiq etishning metodologik tamoyillari
3. Modulga asoslangan o'quv dasturlari va ularning tuzilishi
4. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asosiy xususiyatlari
5. Zamonaviy interaktiv texnologiyalar va ulardan samarali foydalanish usullari
6. O'zbekiston Respublikasida masofaviy ta'limning o'ziga xos xususiyatlari

	<p>7. Ma'ruza mashg'ulotlarining asosiy vazifalari, ma'ruzani tayyorlashning asosiy metodik aspektlari</p> <p>8. Kasbiy-pedagogik madaniyat</p> <p>9. Multimedia vositalari yordamida o'quv jarayonini loyihalashtirish va amalga oshirish</p> <p>10. Zamonaviy pedagogning kasbiy mahorati</p> <p>11. Maxsus fanlarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari</p> <p>12. Amaliy mashg'ulotlarni samarali tashkil etish usullari va texnologiyalari</p> <p><i>Izoh:</i> Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha magistrantlar tomonidan ilmiy loyihalar, portfoliolar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi. Mustaqil ta'lim soatlari hajmlaridan kelib chiqqan holda ishchi dasturda ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish, fan bo'yicha talaba dunyoqarashini kengaytiradigan mustaqil ta'lim mavzulari shakllantiriladi.</p>
3.	<p>V Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida magistrant:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Oliy ta'lim tizimida pedagogik faoliyat yuritishning mohiyati va muammolari; maxsus fanlarni o'qitishdagi yutuq va muammolar to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi; • pedagogik faoliyatni modellashtirishning zamonaviy usullari, Boloniya jarayoni deklaratsiyasi va O'zbekiston Respublikasining jahon ta'lim tizimiga integratsiyasini bilishi va ulardan foydalana olishi; • O'quv jarayonida bilimlarning fundamental asoslarini, ilm-fan yutuqlarini qo'llay olish, o'qitilayotgan fanning boshqa fanlar bilan aloqasi, fanning asosiy muammo va yutuqlarini bilishi va fan mavzularini modullarga ajrata olish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.
4.	<p>VI. Ta'lim texnologiyalari va met..odlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • amaliy (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual amaliy topshiriqlarni bajarish.
5.	<p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ish yoki test topshirish.</p>

6.

Asosiy adabiyotlar

1. Tojiboyeva D. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. Darslik. - T.: "Iqtisod-moliya", 2018, -432 b.
2. Zaripova D.A., Hamrayeva G.R. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. - T.: "Aloqachi", 2020, -132 b.

Qo'shimcha adabiyotlar

3. Ismailova Z.K., Maxsudov P.M., Ergashev O.K. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. Darslik. Toshkent, 2020, -262 b. Xodjayev B.X., Choriyev A., Saliyeva Z.T. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. Darslik. - T.: IQTISODIYOT DUNYOSI, 2018. -190 b.
4. Ro'ziyeva D.I., Tolipov O'.Q. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - T.: INNOVATSIYA-ZIYO, 2019. -276 b.
5. Mutalipova M.J., Xodjayev B.X.. Qiyosiy pedagogika. darslik, – Toshkent, 2015. – 230 b.
6. Mamarajabov M.E., Toshtemirov D.E. va boshq. Informatika o'qitish metodikasi: darslik, – Toshkent: Bookmany print, 2023. – 460 b.
7. Якушева С.Д. Основы педагогического мастерства. Учебник. - Москва.: Академия, 2012.-256 с.
8. Alex Moore. Teaching and Learning: Pedagogy, Curriculum and Culture. USA, 2012 Routledge. p-209.

Axborot manbaalari

9. Vikipediya. <https://www.wikipedia.org/>
10. <https://ziyonet.uz/>
11. <https://lex.uz/uz/>
12. <https://nauka-pedagogika.com/>

7. Mazkur o'quv dasturi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitet Kengashining 2024 yil 26 avgustdagi № 1- sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

8.

Fan/modul uchun ma'sular:

Tillayev A.I.- O'zMU, "Amaliy matematika va kompyuter tahlili" kafedrası katta o'qituvchisi. Pedagogika fanlari bo'yicha PhD.

Mamatqulova M.Sh.- O'zMU, "Amaliy matematika va kompyuter tahlili" kafedrası dots, f.m.f.n.

9.

Taqrizchilar:

Qurbonov M.- O'zMU, "Umumiy fizika" kafedrası prof., Pedagogika fanlari doktori.

Sodikov U.J – O'zMU, "Pedagogika va umumiy psixologiya" kafedrası dots. Pedagogika fanlari bo'yicha PhD.